

Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti talabalari bilan ARM binosida o'tkazilgan kitobxonlik

Bayonnomasi

29.04.2025-yil.

Buxoro tumani

Qatnashdilar:

Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti talabalari hamda, tyutorlar O.E.Djumayeva, D.Hafizova, A.Nasriyev, N.Farmonov, magistr Sattarov.A va fakultet talabalari

ESHTILDI:

BuxDU Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti magistrleri tomonidan "Kitobxon talaba" ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

Tanlovda fakultetning faol kitobxon bakalavr va magistr talabalari ishtirokida tuzilgan 4 ta jamoa quyidagi 3 kitob yuzasidan: "Kafansiz ko'milganlar", "O'n sakkizga kirmagan kim bor", "Oq kema" o'zaro bellashdilar. Bellashuvda ishtirok etgan g'olib jamoalar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Kitobxonlik — bu insonning o'z ehtiyoji, zavqi, bilim olish istagi yoki kasbiy maqsadlar uchun kitob o'qishi. Bu jarayon nafaqat axborot olish, balki:

- tafakkurni boyitish,
- til boyligini oshirish,
- nutq madaniyatini shakllantirish,
- mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi

Shaxsiy rivojlanish: kitoblar shaxsiy fikrni shakllantiradi, ruhiy dunyoni boyitadi.

Madaniyatli jamiyat: ko'p o'qiydigan jamiyat — intellektual salohiyati yuqori jamiyatdir.

Yoshlar tarbiyasi: bolalikdan kitobga mehr uyg'otilgan yoshlar salohiyatli, irodali, bilimli bo'ladi.

Ijodkorlik: kitobxonlik ijodiy fikrlash, so'z boyligini oshiradi.





Bayonlashtirdi

Sattarov.A.A